

**8- SINFLAR UCHUN «O`ZBEKISTON DAVLATI VA  
HUQUQI ASOSLARI»**

**9- sinflar uchun “KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ  
ASOSLARI O`QUV DASTURLARI**

**Toshkent - 2014**

## **Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi**

### **UQTIRISH XATI**

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini qurish va shakllantirish ko'p jihatdan huquqiy ta'limning muvaffaqiyat bilan amalga oshirilishiga bog'liq.

Prezidentimizning 1997 yil 25 iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmoni aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirishdek ulug'vor maqsadlarni ro'yobga chiqarishni ko'zlaydi. Ana shu maqsadlar ro'yobi sifatida 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"da belgilangan huquqiy ta'lim maqsadlarini ko'zlagan holda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqib, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun huquqiy ta'lim standarti" va o'quv dasturlari ishlab chiqildi.

Ushbu dastur fan yuzasidan o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning belgilangan ma'lum me'yori, ilmiy asoslangan bilimlar hajmi bo'lib, 8-9-sinflarda o'rganiladigan «O'zbekiston Davlati va huquq asoslari» fanida uzluksizlik va izchillikni ta'minlashdir.

Shuningdek, o'quvchilarning olgan nazariy bilim va tushunchalarini sinab ko'rish, jamoatchilik o'rtasida ana shu bilimlarni qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishga e'tiborni qaratish maqsadida ba'zi darslarni amaliy mashg'ulot tarzida ham tashkil etish mumkin.

Bunday tajriba fan oldiga qo'yilgan maqsad, vazifalarni izchil amalga oshirishda ijobiy samara beradi.

«Davlat va huquq asoslari» fani 8-9 sinflarda haftasiga 1 soat (har bir sinfda 34 soat) dan jami 68 soat o'qitiladi.

## **Umumiy o'rta ta'lim**

### **VIII sinf UCHUN «O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI» o'quv dasturi (34 SOAT)**

#### **1-dars: Kirish. Mustaqillik-bu huquqdir**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi. Mustaqillikning huquqiy asoslari. Davlat va huquq asoslari ijtimoiy fan sifatida. Fanning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati.

#### **I bob. Jamiyat va davlat**

##### **2- dars: Jamiyat**

Jamiyat haqida tushuncha. Jamiyatining asosiy tarkibiy qismlari va tuzilishi. Inson va jamiyat.

##### **3- dars: Davlat**

Davlat tushunchasi. Davlat belgilari.

##### **4- dars: Davlat funktsiyalari**

Davlat funktsiyasi tushunchasi. Davlatning **ichki va tashqi funktsiyalari**.

##### **5- dars: Davlatning boshqaruv shakli**

Davlat boshqaruvi. Monarxiya va respublika boshqaruvidagi davlatlar, ularning belgilari.

##### **6- dars: Davlatning tuzilish shakli**

Davlat tuzilishi tushunchasi. Unitar, konfederativ, federativ davlatlar va ularning belgilari.

##### **7- dars: Siyosiy tartiboti ( rejim).Davlat organlari. Davlat mexanizmi**

Siyosiy tartibot(rejim). Davlat organlari.Davlat mexanizimlari.

### **FUQAQROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT**

##### **8-dars:**

##### **Nazorat ishi.**

#### **II bob. Fuqarolik jamiyati va Huquqiy davlat.**

##### **9- dars: Huquqiy davlat.**

Huquqiy davlat tushunchasi. Huquqiy davlat belgilari.

##### **10- dars: Fuqarolik jamiyati.**

Fuqarolik jamiyati tushunchasi. Fuqarolik jamiyatining belgilari. Fuqarolik jamiyatida davlatning roli.

**11- dars: O`zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati asoslari.**

O`zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish asoslari. O`zbekistonda fuqarolik jamiyati belgilarining shakllanishi.

**12-dars:O`zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar.Shaxsning huquqiy madaniyati.**

Davlat hokimiyati va bshqaruvini demokratlashtirish.Sud –huquq tizimini isloh etish. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so`z erkinligini ta`minlash.

O`zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta`minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

**O`zbekiston Respublikasida Davlat Boshqaruvi va Huquq**

**13- dars. O`zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi.**

O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo`linishi prinsipiga asoslanishi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlar.

14-dars. Davlat boshlig'i.Prezident institutining joriy etilishi. Prezident–davlat boshlig'i. Prezident vakolatlari.

15-dars. O`zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ.

[O`zbekiston Respublikasi](#) qonun chiqaruvchi organlari tizimi.

Qonunchilik palatasi va Senatning vazifalari.

16-dars. O`zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari.

17-dars. Nazorat ishi.

18-dars. O`zbekiston Respublikasi sud tizimi.

Sud hokimiyati tizimi tusushunchasi. Sud hokimiyati tizimi.

**AXLOQ VA HUQUQ**

19-dars. Huquq.

Huquqning paydo bo`llishi. Huquq funktsiyalari.

20-dars. **Huquq normalar.**

Huquqiy norma tusushunchasi. Huquqiy normalar.

21-dars. **Huquq tarmoqlari ( sohalari).**

Huquq **sohasi** tushunchasi. Huquq **sohasi** tizimi.

22-dars. **Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi.**

Huquqiy munosabat tushunchasi. Huquqiy munosabatlarning sub`yektlari va ob`yektlari. Huquqiy munosabatlarning mazmuni.

23-dars. **O`zbekiston Respublikasining qonun manbalari.**

O`zbekiston mustaqilligining huquqiy asoslari. Mustaqil O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi. O`zbekiston Respublikasi qonunlari:

Asosiy qonun, konstitutsiyaviy qonun, Xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalari. Qonunlar. Qonun osti hujjatlari. Xalqaro shartnomalar.

### **Huquqbuzarlik va huquqiy javobgarlik**

#### **24-dars. Huquqbuzarlik.**

Huquqbuzarlik tushunchasi. Huquqbuzarlikning asosiy belgilari. Ijtimoiy xavflilik. Huquqqa zidlik. Ayblilik, jazolanish, ayb, hulq-atvor qoidalari. Huquqbuzarlik turlari.

#### **25-dars. Huquqiy javobgarlik.**

Huquqiy javobgarlik tushunchasi. Huquqiy javobgarlik turlari.

#### **26-dars. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari. Prokuratura va tergov idoralari.**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqida tushuncha. Sud. Militsiya. Prokuratura. Advokatura.

#### **27-dars. Nazorat ishi.**

#### **28-dars. Ichki ishlar va Adliya vazirligi. Notarial idoralar va advokatura.**

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari. Adliya organlari tizimi. Notarial ishlar. Advokatlik faliyatining huquqiy asoslari haqida.

#### **29- dars. Qonuniylik va huquqiy tartibot.**

Qonuniylikning yagonaligi. Qonuniylikning ustuvorligi va hamma uchun majburiyligi. Qonuniylik va uning maqsadga muvofiqligi. Qonunchilikning huquqiy madaniyat bilan chambarchas bog'langanligi. Qonuniylikni amalga oshirishda xalqning ishtiroki. Qonuniylikning jamoatchilik bilan chambarchas bog'liqligi. Huquqiy tartibot.

### **Voyaga yetmaganlar huquqlari, burchlari.**

#### **30-dars. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.**

Qonun ustuvorligi tushunchasi. Huquqiy savodxonlik, huquqiy tartibot.

#### **31-dars. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari.**

Huquqbuzarliklarning xususiyati va belgilari. Voyaga yetmaganlarning qo'shimcha jazolari. Axloq tuzatish ishlari jazosi. Qamoq. Ozodlikdan mahrum qilish.

#### **32-dars. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari.**

Ota-onaning farzand oldidagi burchi. Oilada voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari.

#### **33-dars. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.**

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarda voyaga yetmaganlarning huquqlari. Voyaga yetmaganlarning mehnatiga haq to'lash, ularning ish vaqti va dam olish vaqti.

#### **34-dars. Nazorat ishi.**

**Umumiy o'rta ta'lim IX sinf**  
**"Konstitutsiyaviy huquq asoslari» fani**  
**o'quv dasturi**  
**(34 SOAT)**

**I bo'lim. Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni**

**1-mavzu: Konstitutsiyaviy huquq**

“Konstitutsiyaviy huquq” tushunchasi. Huquqning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligi. Konstitutsiyaviy huquq asosi.

**2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratilishining asosiy omillari**

Yangi konstitutsiya qabul qilish zarurati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. Konstitutsiyaning belgilari.

**3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalari va xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi. Muqaddima. Konstitutsiyada e'lon qilingan umuminsoniy qadriyatlar: inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, demokratiya ideallari, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikka intilish, mustaqillik g'oyasi.

**4-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari**

Davlat suvereniteti. O'zbekiston Respublikasi – mustaqil suveren davlat. Demokratiya – xalq hokimiyatchiligi. Konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari.

**5-mavzu: O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati**

Davlatning tashqi siyosiy faoliyati. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

**Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari**

**6- mavzu: Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari.**

Inson va davlatning o'zaro bog'liqligi. Inson huquqlariga doir xalqaro va milliy hujjatlar. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.

**7-mavzu: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi.**

Fuqarolik. Fuqarolikka qabul qilish asoslari va uni to'xtatish shartlari. Fuqaro va davlat. O'zbekiston fuqarosining huquqiy maqomi.

**8-mavzu: Nazorat ishi.**

**9-mavzu: Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari.**

Yashash huquqi. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi. Qadr-qimmat va shaxsiy hayotga tajovuzdan himoyalanih huquqi. Yashash joyini erkin tanlash huquqi. Turar joy dahlsizligi. Vijdon erkinligi.

**10 -mavzu: Siyosiy huquqlar.**

Siyosiy huquq tushunchasi. O'zbekiston fuqarolarining saylov huquqi, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va jamoat birlashmalariga uyushish huquqi. Yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish erkinligi.

**11-mavzu: Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari.**

Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar tushunchasi. Mulkdor bo'lish huquqi. Mehnat qilish va erkin kasb tanlash huquqi. Voyaga yeytmaganlarning mehnatini muhofaza qilish. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

**12-mavzu: Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari.**

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari tushunchasi. Konstitutsiya va qonunlarda inson huquq va erkinliklari kafolatlarining ta'minlanishi.

**13- mavzu: O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari. (1 soat)**

Konstitutsiyaviy burch va majburiyat tushunchasi. Huquq va burchlar birligi. Mudofaa va xavfsizlik.

**14-dars: Nazorat ishi.**

**III bo'lim. Jamiyat va shaxs ( 9 soat)**

**15-mavzu: Jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati.**

Jamoat birlashmalari tushunchasi. Jamoat birlashmalari faoliyati. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni.

**16-mavzu: Siyosiy partiyalar.**

Demokratik huquqiy davlatda siyosiy partiyalar faoliyati ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida ko'p partiyali tizimning shakllanishi. Mamlakatda demokratiyani mustahkamlashda siyosiy partiyalarning roli. Yakka partiyali va ko'p partiyali tizimlar afzalligi va kamchiliklari.

**17-mavzu Oila va jamiyatning buguni va kelajagi negizidir.**

Oila davlat himoyasida. Jamiyatning oila oldidagi va oilaning jamiyat oldidagi asosiy huquq va burchlari. Ota-onalar va farzandlarning huquq va burchlari.

**18-mavzu: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi.**

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi shakllari. Viloyatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar, ovullar, ularning hududiy tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.

**19-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tashkil etilishi.**

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi va O'zbekistonda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari. Oliy Majlisning ikki palataga

bo`linishi va ularning tuzilishi, Senat va senatorlarning faoliyati va ularning vakolatlari.

**20-mavzu: Oliy Majlis va uning vakolatlari.**

Oliy majlis va uning tarkibini tuzish tartibi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari. Qonunchilik tashabbusi huquqi. Qonunchilik jarayoni bosqichlari.

**21-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash tartibi, Prezident vakolat muddatining uzaytirilishi.

**22-dars: Nazorat ishi.**

**23-mavzu: O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari.**

Vazirlar Mahkamasi – mamlakat hukumati. Xalq deputatlari Kengashlari. Hokimlar va ularning vakolatlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.

**24-mavzu: Mahalliy davlat hokimiyati organlari.**

Xalq deputatlari. Viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari faoliyati.

**25-mavzu: O'zbekiston Respublikasining sud tizimi.**

O'zbekiston Respublikasining sud tizimini tashkil topishi va faoliyatining printsiplari.

**26- mavzu: O'zbekiston Respublikasi sud organlari faoliyatini tashkil etish.**

Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar. Sudlarning huquq va majburiyatlari. Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari. O'zbekiston Respublikasining qonuni normativ – huquqiy hujjatlari to'g'risida.

**IV bo'lim. Konstitutsiya-mamlakatda demokratiyani rivojlantirish kafolatidir.**

**27- mavzu: O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi.**

O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi. Saylovlarning davlatda demokratik munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati. Saylovning demokratik printsiplari. Referendum va uni o'tkazish tartibi.

**28-mavzu: Amaliy dars. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis deputatlari va senatorlari saylovi.**

Oliy majlisga deputatlar saylovini o'tkazish tartibi. Maktab Kamolot sardorlarini saylash. Saylovoldi kompaniyasiga tayyorgarlik. Saylovoldi kompaniyasi. Saylov.

**29-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Prokuratura organlari.**

Prokuror – qonun himoyachisi. Prokuratura organlarining tuzilishi. Prokuror nazoratiga oid hujjat turlari.

**30- mavzu: O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit.**

Huquq va iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi. O'zbekiston respublikasining moliya va pul-kredit tizimi. Soliqlar. Davlat byudjeti.

**31-mavzu: Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish.**

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish shartlari, tartibi. Konstitutsiya komissiyasi, “qat’iy” konstitutsiya, “moslashuvchan” Konstitutsiya.



**32-mavzu: O'rganilgan mavzularni takrorlash: "Konstitutsiya-  
mamlakatda demokratiyani rivojlantirishning huquqiy kafolatidir".**

**33- dars. Nazorat ishi.**

**34-dars. Yakuniy takrorlash.**

## **Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv dasturi**

### **DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI**

#### **1. So'z boshi**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bugungi yosh avlodlarimizga nasib etdi. Respublikamiz insonparvar demokratik huquqiy davlat qurmoqda. Bunday davlatni barpo etish esa jamiyatdagi rivojlangan huquqiy tizimning, xalqning, ayniqsa yoshlarning yuksak darajadagi huquqiy bilimi, ongi, madaniyatini taqozo etadi. «Eng muhimi, barcha huquqiy davlatlar qatorida qonun asosida yashashni o'rganishimiz zarur»

Keyingi yillarda Respublikamizda mustaqillikni mustahkamlash jarayonida juda ko'p ishlar olib borilmoqda. Eng asosiy o'rin ilmga qaratilgan. Bu esa yangi-yangi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar yaratishni talab etmoqda.

Bunga O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda qabul qilgan O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomi, «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» va boshqa bir qancha huquqiy hujjatlar misol bo'la oladi.

Mamlakatimizning rivojlanishi, dunyo miqyosida davlatlararo hurmat e'tiborga sazovor bo'lishi, kelajak avlodni yanada o'qimishli, har tomonlama bilimdon qilib tarbiyalashni talab qiladi.

Yuz berayotgan o'zgarishlar yoshlarning huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashini, qonun asoslarini o'rganishini, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishini, qonun talablarini so'zsiz bajarishini hamda o'z huquq va burchlarini bilishlarini talab etadi.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda Respublikamiz maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan «Davlat va huquq asoslari» fanining o'rni va ahamiyati cheksizdir.

## **«Davlat va huquq asoslari» fani bo'yicha o'quv dasturi**

### **1-mavzu: Jamiyat, davlat va huquq**

Davlat va huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar. Davlatning ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy mohiyati. Davlatlar tasnifi. Ijtimoiy normalar tizimida huquqning o'rni. Huquq normalarining tuzilishi va turlari. Huquq manbalari va ularning turlari.

### **2-mavzu: Konstitutsiyaviy huquq asoslari**

Konstitutsiya va uning tarixiy rivojlanishi; konstitutsiyaning asosiy funksiyalari, ustunligi va barqarorligi, Konstitutsiyaviy nazorat, Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, tavsifi, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy belgilari.

### **3-mavzu: Ma'muriy huquq asoslari**

Ma'muriy huquq manbalari. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi, ularning turlari. Ma'muriy-huquqiy munosabat ishtirokchilari. Ma'muriy-huquqbuzarlik tushunchasi. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarligi.

Ma'muriy javobgarlik tushunchasi. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi. Ma'muriy jazo.

#### **4-mavzu: Fuqarolik huquqi asoslari.**

Fuqarolik huquqi tushunchasi. Fuqarolik huquqi munosabatlari. Ularning subyekt va obyektlari. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati. Yuridik shaxslar. Bitimlar va shartnomalar tushunchasi, shakllari.

#### **5-mavzu: Mulk huquqi asoslari.**

Mulk huquqi tushunchasi. Mulk shakllari. Mulk huquqi subyektlari. Intellektual mulk tushunchasi.

Mualliflik huquqi. Majburiyatlar to'g'risida umumiy tushuncha. Shartnoma tushunchasi. Vorislik huquqi.

#### **6-mavzu: Mehnat huquqi asoslari.**

Mehnat huquqi tushunchasi, manbalari, tizimi. Mehnat huquqi subyektlari. Ish beruvchi va xodim tushunchasi. Mehnat jamoasi. Ish beruvchi va xodimning asosiy huquqlari. Mehnat shartnomasi tushunchasi. Ishga qabul qilish tartibi.

#### **7-mavzu: Mehnatga oid huquqiy munosabatlar.**

Mehnat munosabatlari tushunchasi. Ish vaqti. Dam olish vaqti. Mehnatga haq to'lash. Mehnat intizomi. Mehnatni muhofaza qilish. Ayollarga va yoshlarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar. Mehnat nizolari. Davlat ijtimoiy sug'urtasi.

#### **8-mavzu: Oila huquqining asoslari.**

Oilaning jamiyat hayotidagi o'rnini. Oila huquqining manbalari. Nikoh. Nikohning tugatilishi, er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Ota-onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik va homiylik.

#### **9-mavzu: Jinoyat huquqi asoslari**

Jinoyat huquqi tushunchasi. Jinoyat huquqi manbalari. Jinoyat tushunchasi. Jinoyat belgilari, ayb va uning shakllari, jinoyatni tasniflash, jinoyat huquqining manbalari. Jinoyat jazo va ularning turlari.

#### **10-mavzu: Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish asoslari.**

Voyaga yetmaganlar jinoyati turlari. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish asoslari. Voyaga yetmaganlarni so'roq qilish. Ushlab turish qoidalari. Voyaga yetmaganlarga ayb e'lon qilishning tartibi. Voyaga yetmaganlar uchun qo'llaniladigan jazolar.

#### **11-mavzu: Ekologiya huquqi asoslari**

Ekologiya huquqi tushunchasi. Ekologiya huquqi manbalari tizimi. Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlari. Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik.

## **12-mavzu: Xalqaro huquq**

Xalqaro huquqning paydo bo'lishi. "Xalqaro huquq" tushunchasi. Xalqaro huquq obyektlari. Xalqaro huquq funksiyalari. Xalqaro huquq va milliy huquq. Jahon huquqiy oilasi.

## **«Huquqshunoslik» fani bo'yicha referat mavzularining namunaviy ro'yhati**

| <b>T/p</b>                                        | <b>Boblar bo'yicha mavzularning nomi</b>                          |
|---------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| <b>I bob. Jamiyat, davlat va huquq nazariyasi</b> |                                                                   |
| <b>1.1.</b>                                       | <b>Furqat ijodida ijtimoiy-siyosiy qarashlar.</b>                 |
| <b>1.2.</b>                                       | <b>Muqimiyning davlatni boshqarish to'g'risidagi tushunchasi.</b> |
| <b>1.3.</b>                                       | <b>Hokimiyat (hukumat), davlat va huquq.</b>                      |

|                                                |                                                                                             |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.4.                                           | Davlat, huquq va shaxs.                                                                     |
| 1.5.                                           | Davlat, huquq va iqtisod.                                                                   |
| 1.6.                                           | Davlat va huquqning o'zaro munosabati.                                                      |
| 1.7.                                           | Davlat va mafkura.                                                                          |
| 1.8.                                           | Davlatning konstitutsiyaviy prinsiplari.                                                    |
| 1.9.                                           | Huquqiy davlatni barpo etish masalalari.                                                    |
| 1.1<br>0                                       | Jamoat tashkilotlari, davlat va shaxsning huquqiy davlat qurishdagi o'rni.                  |
| 1.1<br>1.                                      | Davlat va madaniyat (tarixiy- huquqiy nuqtai nazar).                                        |
| 1.1<br>2.                                      | Qonunchilikni rivojlantirishning nazariy asoslari.                                          |
| 1.1<br>3.                                      | Qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlash muammolari.                                   |
| 1.1<br>4.                                      | Huquqiy tarbiya nazariyasi.                                                                 |
| 1.1<br>5.                                      | O'zbekiston Respublikasi qonunlarining takomillashuvi.                                      |
| 1.1<br>6.                                      | Huquqiy normalar.                                                                           |
| 1.1<br>7.                                      | Huquqiy normalarni sharxlash tushunchasi, yo'llari.                                         |
| 1.1<br>8.                                      | Yuridik javobgarlik mexanizmi.                                                              |
| <b>II bob. Konstitutsiyaviy huquq asoslari</b> |                                                                                             |
| 2.1.                                           | O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasining qabul qilish shart-sharoitlari. |
| 2.2.                                           | O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat organlarining tashkil topishi, faoliyati           |
| 2.3.                                           | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, uning faoliyati.                                       |
| 2.4.                                           | O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, fuqarolikning vujudga kelishi.                         |
| 2.5.                                           | Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarining asoslari.                                   |
| 2.6.                                           | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oila to'g'risida.                                  |
| 2.7.                                           | Qoraqalpog'iston Respublikasining siyosiy- huquqiy holati.                                  |
| 2.8.                                           | Davlat boshqarilishining konstitutsion asoslari.                                            |
| 2.9.                                           | Ma'muriy- huquqiy tuzilish tushunchasi, mohiyati.                                           |
| 2.1<br>0.                                      | Mulkni ma'muriy- huquqiy himoya qilish.                                                     |
| 2.1<br>1.                                      | Atrof muhitni himoya qilishda ma'muriy- huquqiy muammolar.                                  |
| 2.1<br>2.                                      | Vazirlar Mahkamasi qarorlarining boshqarilishini ta'minlash.                                |
| 2.1<br>3.                                      | Korxona, muassasa, tashkilotlar - ma'muriy huquq sub'ekti sifatida.                         |
| 2.1                                            | Turar joylarni xususiylashtirish asoslari.                                                  |

|                                          |                                                                   |
|------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| 4.                                       |                                                                   |
| <b>III bob. Ma'muriy huquq asoslari</b>  |                                                                   |
| 3.1.                                     | Ma'muriy huquqiy munosabatlar.                                    |
| 3.2.                                     | Ma'muriy huquqiy munosabat sub'ektlari.                           |
| 3.3.                                     | Davlat boshqaruvi.                                                |
| 3.4.                                     | Davlat xizmatchilari va uning turlari.                            |
| 3.5.                                     | Davlat boshqaruvi sohalari.                                       |
| 3.6.                                     | Ma'muriy huquqbuzarlik.                                           |
| 3.7.                                     | Ma'muriy javobgarlik asoslari.                                    |
| 3.8.                                     | Ma'muriy jazo turlari.                                            |
| <b>IV bob. Fuqarolik huquqi asoslari</b> |                                                                   |
| 4.1.                                     | Fuqarolik huquqining predmeti, maqsadi.                           |
| 4.2.                                     | Bitimlar to'g'risida tushuncha, turlari, shartlari.               |
| 4.3.                                     | O'zbekiston Respublikasida turar joy huquqiy asoslari.            |
| 4.4.                                     | Mualliflik huquqi asoslari.                                       |
| 4.5.                                     | Vorislik huquqi asoslari.                                         |
| 4.6.                                     | Fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining kelib chiqish asoslari. |
| 4.7.                                     | Fuqarolik huquqida da'vo muddatining kelib chiqish asoslari.      |
| 4.8.                                     | Kredit va qarz shartnomasi.                                       |
| 4.9.                                     | Bank shartnomasi.                                                 |
| 4.1                                      | Topshiriq shartnomasi.                                            |
| 0.                                       |                                                                   |
| 4.1                                      | Omonat shartnomasi.                                               |
| 1.                                       |                                                                   |
| 4.1                                      | Sug'urta tushunchasi, turlari.                                    |
| 2.                                       |                                                                   |
| 4.1                                      | Oddiy shirkat shartnomasi.                                        |
| 3.                                       |                                                                   |
| 4.1                                      | Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.                |
| 4.                                       |                                                                   |
| 4.1                                      | Intellectual mulk tushunchasi.                                    |
| 5.                                       |                                                                   |
| 4.1                                      | Shartnomalarga oid huquqlar                                       |
| 6.                                       |                                                                   |
| <b>V bob. Mehnat huquqi asoslari</b>     |                                                                   |
| 5.1.                                     | Mehnat huquqida vakillik tushunchasi, turlari, vazifalari.        |
| 5.2.                                     | Mehnat shartnomasining kelib chiqish asoslari, turlari.           |
| 5.3.                                     | Aholini ish bilan ta'minlash yo'llari .                           |
| 5.4.                                     | Mehnat intizomi.                                                  |
| 5.5.                                     | Kafolatlar va badal to'lovlar.                                    |
| <b>VI bob. Oila huquqi asoslari</b>      |                                                                   |
| 6.1.                                     | Oilal huquqi tushunchasi, turlari.                                |
| 6.2.                                     | Nikohdan o'tish shart-sharoitlari.                                |
| 6.3.                                     | Nikohni bekor qilish shart-sharoitlari.                           |

|                                         |                                                     |
|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| 6.4.                                    | Er-xotinning moddiy va ma'naviy huquq va burchlari. |
| 6.5.                                    | Ajrim sabablari, oqibati.                           |
| 6.6.                                    | Farzandlikka olish.                                 |
| <b>VII bob. Jinoyat huquqi asoslari</b> |                                                     |
| 7.1.                                    | Jinoyat huquqi tushunchasi.                         |
| 7.2.                                    | Jinoyat tushunchasi.                                |
| 7.3.                                    | Jinoiy javobgarlik.                                 |
| 7.4.                                    | Jinoyatning tarkibi.                                |
| 7.6.                                    | Jinoiy jazo va uning turlari.                       |





